

## NAVOIY VILOYATIDAGI NUROTA MANZILGOHI VA SARMISHSOY DARASI

*To‘ymurodova Dinora Otabek qizi*

*Termiz Davlat Universiteti*

*Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish  
hamda boshqarish ta‘lim yo‘nalishi talabasi*

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada 1992-yil mart oyidan Navoiy viloyati tarkibiga kirgan Nurota tumani va Navoiy viloyati Navbahor tumanida joylashgan Sarmishsoy darasining qadimiy tarixi, bu manzilgohlarning ajoyibotlari, ularning o‘rganilishi va hozirgi vaqtdagi ularga berilayotgan e‘tibor haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy viloyati, Nurota tumani, Sarmishsoy darasi, Nurota chashmasi, rasmlar, „Avliyobaliq“, 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qaror

Mamlakatimizning qay bir go‘shasiga nazar solmaylik, u o‘zining ajoyib tarixiy inshootlari, qadamjolari, ziyoratgohlari bilan bizni o‘ziga maftun etadi. Shunday qadamjoldan biri Navoiy viloyati Nurota tumanida joylashgan Nurota manzilgohi O‘zbekistonning qadimgi shaharlaridan hisoblanadi. Narshaxiyning X asrda yozgan „Buxoro tarixi“ asarida shahar dastlab Nur deb tilga olingan. Keyinchalik shahar bu yerda yashagan mashhur shayx Abdulhasan Nuriy (XII asr) sharafiga Nurota deb nomlana boshlagan. Tarixiy manbaalarda keltirilishicha Nurota arab va fors-tojik tillaridagi nur va „ato“ so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, „yorug‘lik“ taratadigan ya‘ni nur ato etadigan joy ma‘nosini ham anglatadi. Bu hududdan Buyuk Ipak yo‘lining bir tarmog‘i o‘tgan. Qal‘a qadimda Jizzax viloyatidan so‘ng Buxoro va Samarqand vohasiga kirish uchun ikkinchi darvoza vazifasini bajargan. Qadimda tosh yo‘li orqali Nurotaga ko‘plab karvonlar kelgan. Chingizxonning o‘lkamizga bosqini davrida uning qo‘shinlari Buxoroga borishda savdo yo‘li bo‘lgan tosh yo‘lidan Nurga kirib kelishgan. Shundan so‘ng tosh yo‘li „xon yo‘li“ deb ham atala boshlangan. Keying davrlarda ham Nurota muhim strategik istehkom bo‘lgan.

Shaharda xalq amaliy san‘ati va hunarmandchiligi qadimdan rivojlangan. Nurota ustalari tayyorlagan duradgorlik, temirchilik, chilangarlik, quruvchilik, kulolchilik, misgarlik, kashtachilik, zargarlik buyumlari hamisha o‘z xaridorlariga ega bo‘lgan. Manzilgohda XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid Chilustun jome masjidi, 1582-1590-yillarda qurilgan Katta Gumbaz masjidi, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga tegishli Sayidota, Oqmasjid, Bargso‘z masjidlari, 1928-yilda barpo etilgan Sudur Bobo hammomi kabi me‘moriy va tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan. Shaharda Mozori Sang Andoz (Paxlavon Ahmad Jamoiy), Chilla mozor (Xoja Ubaydullo Jarroh), Shoiris

(Bibisitam Tagalbos), Mozori bandikusho (Hoji Burhoniddin Jarroh) kabi ziyoratgohlar bor.

Eng mashhur ziyoratgohlardan biri Nurota chashmasi hisoblanadi. Chashmaning sirli jihati shundaki, undagi suv tarkibida fosfor moddasi mavjud bo'lib, bu modda unda suzib yuruvchi baliqlarning har xil tusda tovlanib turishini taminlaydi va ular jozibali ko'rinishda namoyon bo'ladi. Chashma suvi yerosti yo'laklaridan soniyasiga 290 litr miqdorda oqib chiqadi. Suvning iliqqligi har doim bir xil darajada bo'ladi. Shu davrgacha chashma suvining muzlagani kuzatilmagan. Bu suvning tarkibida oltin moddasi aniqlangan, u oshqozon – ichak xastaliklariga davo deb aytilgan. Suvdagi yod moddasi buqoq kasalliklariga shifo ekanligi qadimdan ma'lum. Chashmadagi kumush eritmasi esa, suv tarkibi yaxshi saqlanishini ta'minlab beradi. Bu chashmaning baliqlari fan tilida Sutbaliq, ya'ni daryo marinkasi deb ataladi. Baliqlar o'rtacha 17 yil umr ko'rib, bu chashmani qumlardan tozalab, suvni filtirlab beradi. Bu baliqlarni o'tmishda „Avliyobaliq“ deb ham atashgan. Chashmadagi bu baliqlarni istemol qilib bo'lmaydi, sababi ularning ichida qora parda bo'lib, uvuldirig'i zaharli, uni tozalamasdan yegan odamning terisida dog'lar paydo bo'ladi, agar uni ko'p miqdorda istemol qilsa, o'limga olib keladi. Rus bosqini davrida mahalliy aholi tomonidan ogohlantirilishiga qaramasdan baliqni yegan rus askarlari vafot etishgan. Bugungi kunga kelib Nurota maskani obod qilingan. Uning atrofida xiyobon, mehmonxona, favvoralar qurilgan. Mahalliy aholi va sayyohlar bu maskanga har doim tashrif buyurishadi va chashmaning shifobaxsh suvidan olib ketishadi.

Navoiy viloyatidagi yana bir hayratga sazovor joy bu – Sarmishsoy darasidir. 1958-yilda X. Muhammedov tomonidan topilgan Sarmishsoy darasi ajoyib g'aroyibotlarga boy hisoblanadi. Daraning uzunligi 2,5 km ga cho'zilgan. Bu daradagi qoyatoshlarda miloddan avvalgi IV-I ming yillikka va milodiy I-VII asrlarga oid 4 mingga yaqin rasmlar bronza, temir va tosh bilan urib cho'kichlab sxematik, kontur, soya va naqshdor uslubda ishlangan. Rasmlarda yovvoyi hayvonlarni itlar yordamida ovlash, hayvonlarning o'zaro urishi, chorvachilik, raqs tushayotgan odamlar, diniy marosimlarning o'tkazilishiga oid manzaralar tasvirlangan. Rasmlar bilan bir qatorda qoyalar orasida arab tilidagi turli xil yozuvlar ham uchraydi. Bu ibtidoiy san'atning nodir yodgorligi bo'lishi bilan bir qatorda shu hududda yashagan qadimgi xalqlarning hayoti, hayvonot dunyosi tarixini o'rganishda muhim arxeologik yodgorlik sifatida qaraladi. Sarmishsoy darasining o'simlik va hayvonot dunyosi ham juda ajoyib va xilma-xildir. Bundan tashqari ushbu darada butun Sarmishsoy darsi bo'ylab oqib o'tadigan soy ham mavjud.

2004-yilda Sarmishsoyda Xalqaro konferensiya o'tkazilgan va unda 15 ta xorijiy davlatdan 50 nafardan ortiq qoyatosh suratlari bo'yicha mutaxassislar ishtirok etgan. Ular 10 kun mobaynida darada ekspeditsiyalar uyishtirishgan, tadqiqotlar

o'tkazishgan. Ana shu o'rganish jarayonida ko'plab ilmiy ma'lumotlar yuzaga kelgan. Shu tariqa Sarmishsoy darasiga ham sayyohlar kirib kela boshlagan. *“Biz ayni damda O'zbekiston bo'ylab kichik sayohatni amalga oshirmoqdamiz. Bu bizning Sarmishsoyga ilk tashrifimiz. Men petrogliflar haqida internetda ko'plab ma'lumotlar o'qiganman. Ularni ko'rishga ishtiyoqimiz baland. Petrogliflarning bunday yaxshi holatda saqlanib qolganidan, ochig'i, hayratdamiz. Odamlar ularni asrab-avaylashga bunchalik e'tibor qaratishi, shubhasiz, diqqatga sazovordir”*, – deya ta'kidlagan Kun.uz ga intervyu bergan angliyalik Keyn Gomen. Bu yerda Buxoro amirlarining yozda ov qilishi uchun tayyorlangan maxsus Amir chorbog'i ham bo'lgan. Ramazon Egamov Amir chorbog'i haqida shunday deydi: *„Xushmanzara, obod joy bo'lgani va soyi suvga to'lib oqqani uchun Sarmishsoy hamisha odamlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Hatto Buxoro amirlari tomonidan shu joyda chorbog' qilingan. Sarmishsoyning janubiy tomonida taxminan 5-6 gektar sersuv, bo'z tuproqli yer bog'-charbog' qilishga qulay bo'lgan. Bu Abdullaxon II davridan, XVI asrdan boshlab amalga oshirilgan. Sayid Abdulahadxon davrida ham bu bog'dan foydalanilgani haqida ma'lumotlar bor. Qoyatosh suratlaridan ma'lumki, dara kiyik, arxarlar ko'pligi tufayli ov qilish uchun juda qulay hudud bo'lgan. Ba'zi manbalarda ushbu joyda Mirzo Ulug'bek ham ov qilgani haqidagi ma'lumotlar uchrayd'i*.

Sarmishsoy darasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli „Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori asosida Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan. Yuqoridagi ikki qadimiy maskanning hozirgi vaqtdagi o'rni yuqori. Ikkala manzilgohga ham chet el sayyohlari va yurtdoshlarimizning qiziqishi kuchli. Manzilgohlar ta'rifini „Ming marta eshitgandan bir marta borib ko'rgan afzalroq”dir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil
2. „Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi qaror 2019-yil 4-oktabr.
3. Kun.uz.
4. <https://xabar.uz/w6q>